

“ISYON VA ITOAT” ROMANIDA XARAKTER VA RUHIYAT BIRLIGI

*Avazov Vahobjon Tolibjon o‘g‘li
SamDU tadqiqotchisi*

Yangilanayotgan badiiy tafakkurga sezilarli darajada hissa qo‘sib kelayotgan shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdamning o‘rni alohida ekanligi e’tirof etilgan hodisa. Darvoqe, yozuvchi badiiy izlanishlarida roman janri etakchilik qiladi. Xususan, “Muvozanat”(1997), “Isyon va itoat”(2003), “Sabo va Samandar”(2011) romanlari keyingi yillar o‘zbek romanchiligi taraqqiyotiga sezilarli hissa bo‘lib qo‘sildi.

Ushbu romanlarda hayotning murakkab qirralari, inson xarakterining o‘ziga xosligi, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, inson botiniy olamidagi konfliktlar teran talqin etilgan. Darhaqiqat, “Isyon va itoat” romanidaadolatizlik va haqsizlik qurbaniga aylangan shaxs fojeasi bilan bir qatorda inson ichki olamidagi ziddiyatlar hayot haqiqatidan kelib chiqib tasvirlangan. Asarda haqsizlik vaadolatsizlikdan jabr ko‘rgan Akbar “men”iga duch kelamiz.

Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov qayd qilganidek: “Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o‘zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o‘z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g‘oyaviy maqsadi orqali sintez qilish oqibatida badiiy obraz shakllanidi. SHu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir hilqat, yangi bir kashfiyotdir”. Ijodkor hayotning turli xil hodisalarini, voqealarini inson xarakteriga o‘ziga xos ta’sirini ifodalaydi.

Shuning uchun ham “Isyon va itoat” romanidagi Akbar, Diana, Larisa xola, Tursunboy jontalash, Komil tabib kabi personajlarda insonning ma’naviy olamini, ruhiyat izardiroblarini mahorat bilan ko‘rsata olgan. Buni biringa ushbu iqtibosda ham kuzatamiz: “Akbar cho‘chib uyg‘ondi. Tag‘in o‘sha tun. Tag‘in o‘sha o‘quvchi... Sadr, uning haqoratli so‘zлari, ko‘kragiga kelib urilgan mushtlari.. Keyin shapaloq... sud... Sudyaning og‘zidan chiqqan shavqatsiz hukm: “Uch yilga ozodlikdan mahrum etilsin!” har safar ana shu “mahrum etilsin!” sozlaridan keyin Akbar “Yo‘q, yo‘q, yo‘q!” deya baqirib uyg‘onib ketadi va hushiga kelgach ham uni takrorlayberadi: “Yo‘q, yo‘q, yo‘q” Axir bu shavqatsizlik, axir buadolatsizlik, axir bunoinsoflik, axir bu...”.

Ko‘rinadiki, inson ruhiy olamidagi ziddiyatlar uning shaxs sifatida muhitning, davrningadolatsizligiga, shafqatsizligiga kurash olib bormoqda. Bu o‘rinda muallif va qahramon ovozi bir-biriga qo‘silib ketadi. Polifonik tafakkur unsurlari romanda anchayin keng ifoda etilgan. Buyuk rus adibi F.Dostoevskiy uslubiy manerasining ba’zi ko‘rinishlari roman vogeligidagi mahorat bilan yoritilgan deyish mumkin.

Binobarin, Akbar oddiy bir o‘qituvchi, o‘z o‘quvchisidan haqorat eshitib, unga dosh berolmay bir tarsaki uchun uch yil ozodlikdan mahrum bo‘lgan shaxs.

Romandagi dastlabki badiiy konflikt Akbar va Sadr o‘rtasida kechgan qisqa epizodda ro‘y beradi. Bu esa syujetni harakatga keltirib, romandagi voqelik mantiqiga yanada teranroq kirib borishga zamin hozirlaydi. Aytish o‘rinligi, Akbar insonlik qiyofasini yo‘qotgan o‘quvchini hammaning oldida yaxshi gap bilan tartibga chaqirishga urinadi. Ammo urinishlari behuda ketganidan achchiqlanib, o‘zini qo‘lga ololmay bir tarsaki tushirib jazosini bermoqchi bo‘ladi. Roman mohiyatida yozuvchining muhim gapi, “Isyon azobidan forig‘ bo‘lib, itoatga kelmaguncha halovat topolmaysan” degan birgina jumla asosiga qurilganligi ayonlashadi. Isyon – odamzodni botiniy olamini har xil dunyoning firiblaridan himoyat qilishga qaratilganligi Akabar xarakterida maromiga etib tasvirlangan.

Yozuvchi roman syujetida konfliktning bir necha turlarini, ya’ni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi, shaxs va shaxslar o‘rtasidagi, shaxs va muhit ziddiyatlarini, qahramon ruhiy olamidagi konfliktlardan foydalanadiki, bu esa xarakter va konfliktning uzviyildan dalolat beradi. Agar romandagi Akbar ruhiy olamidagi konfliktlar uning borliqqa, jamiyatdagi uzil-kesil evrlishlarga teranroq nazar solish, idrok etish zarurlagini anglashga xizmat qilsa, muhit ziddiyatlari esa uni shaxs sifatida shakllanishiga – sabab vazifasini o‘taydi.

Akbar qamoq muddatini o‘tab, ustozи yoniga kelib, nima qilishini bilmayotganligini aytganda Tabib unga “safarga otlan”, - deya javob beradi. Bu gapning ma’nosini esa o‘sha vaqtida teran ilg‘ay olmaydi. Uning ayni shu tobdagи qalb isyonи bunga imkon bermaydi. SHundan so‘ng u nochor holda yashayotgan oilasini tiklash uchun Rossiya o‘lkasiga tijorat maqsadida yo‘lga bir mashini qovun olib boradi. Ammo uni o‘sha arning o‘ziga xos “kuchlari” egallab oladi va yana bir mashina qovun evaziga jonini saqlab qolish mumkinligini Akbarga uqtirishadi.

Ijtimoiy muhit va shaxs o‘rtasidagi konfliktni quyidagi tasvirda kuzatamiz: “Bu axir adolatsizlik-ku, Xudojon!” – degan alamli o‘y xayolidan kechdi... xayoliga hech nima kelmay qoldi; na shirin-shakar bolalari, na xotini, na otasi va na onasi, hech kim!.. Faqat isyon bor edi, balki uning yuragida! Isyon bo‘lganda ham, o‘z qismatiga, qismatning alamli, dunyoning firibidan, zo‘ravonlikdan, adolatsizlikdan iborat ekanligiga qarshi arimas Isyon!...”.

Romandagi voqealarga paralell ravishda qo‘llanilgan ilohiy-mifologik unsurlar, badiiy kiritmalar xarakter ruhiyatini, voqelik mantiqini teranroq anglash imkonini beradi. Shuningdek Odam ato hamda Momo havolarning taqiqlangan mevani eb, quvginga uchrashi, iblis qutqusidan xalos bo‘lishga harchand urinmasin, baribir gunohkorlikka mahkum ekanligini anglab etishidagi ramziylik – er yuzidagi jamiki insoniyat tanazzulining sabab hamda oqibatlariga teran nigoh solgan yozuvchi Akbar qiliyotgan isyonning mazmuniga, mohiyatiga falsafiy jihatdan urg‘u beradi. Romanda

Akbar ruhiyatini to'laligicha suratlagan “Faqat isyon bor edi uning yuragida” jumlasidan anglash mumkinki, bu isyon jamiyat va shaxs, tabiat va jamiyat o'rta sidagi murosasiz abadiy kurashning – asosini dalolatlashga yo'naltirilganligi ma'lum bo'ladi.

Romanning barcha to'qimalariga badiiy konfliktning barcha turlari sochilib ketgan. Yoyiq tasvirni yaxlitlashtira olgan adibning ijodiy niyati – shaxs va muhit o'rta sidagi ziddiyatlarning sabab hamda oqibatlarini ko'rsatishdan iboratgina bo'lib qolmay, dunyo tamaddunining etib kelgan nuqtasidagi tanazzul suvratini chiza organligida ham real salmoq kasb etadi.

Aytish joiz, Akbar qalbidagi isyon usha muhit zo'ravonlarini ham o'ziga keltirgan, har gapi uchun unga shuncha azoblardan so'ng bir talay pul tashlab ketgan edi. Ammo bu zo'ravonlikka qarshi isyon unda ham ozaymagan va qalb iztiroblari iskanjasida qolgan edi. Shu lahzalarda ichki, ruhiy konfliktni etakchilik qilishini ko'ramiz: “Har qanday ulug‘ ish boshlamagan, hammasining oxiri qayg‘uli nihoya, kimni qanday go'zal qizni, ayolni sevmagin, barining so'ngi ayriliq nadomat, umring uzoq bo'lib qancha yashamagin, baribir, o'limni hatlab o'taolmaysan... Yo'qsa chekayotgan zahmatlaring zoya ketishiga qilayogan, qilmoqchi bo'layotgan ezgu amallaring, ishlayotgan savoblarining izsiz yo'qolishiga, umuman, kun kelib sendan, sening hotirangdan asar ham qolmasligiga qanday chidash mumkin?.. Bu axir adolatsizlik, jabr va zulm emasmi?..”

Akbar o'z olamidagi ziddiyatlar bilan kurashar ekan, hayotga teranroq nazar solishga, hayotning o'tkinchi ekanligiga, inson umri azizroq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi. Huddi shu o'rinda Avstriyalik varach-psixolog Zigmund Freydning quyidagi fikrlarini qayd qilib o'tishni lozim. Freyd insonning hayotga bo'lган intilishlarini Eros, o'limga bo'lган intilishini esa Tanatos (tirik organizmning o'lik materiyaga aylanishi) instinkti,”-deb ataydi. Darhaqiqat, hayot ziddiyatlaridan iborat ekan. U insonga, shaxs ruhiy olamiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Adabiyotshunos Tilavoldi Jo'raev yozishicha: “Jamiyat hamisha kurshib keladigan barcha insoniy illatlar inson ruhiy dunyosining o'ta murakkab va serqirraligini ko'rsatadi. Insonning tutumi kechmishlari barchasi oxir oqibatda uning ruhiy dunyosiga hayotiy pozitsiyasiga bog'liqdir”.

Xullas, inson ruhiy olamidagi kanflikt romanida mahorat bilan talqin etilgan. Shuning uchun ham konflikt asar pesonajlarining syujetda badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurshlari qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar tarzida o'z ifodasini topgan bo'lib, Akbar olamidagi ziddiyatlar uni xarakter darajasiga olib chiqqan [3,13; 4, 14; 5,34].

“Isyon va itoat” romanida badiiy konflikt asar syujetini shakllantirishda etakchi rol o'ynagan. Romanda tasvirlangan har bir konfliktli holat turlicha hal etilishi bilan bir qatorda voqealar rivojini yuzaga chiqarishga imkon beradi. SHuning uchun ham

Akbar ruhiyatidagi ziddiyatlar uning muhit va shu muhitdagi istiqomat qiluvchi shaxslar negizida yuzaga kelganligini qayd etish lozim.

Adabiyotlar:

- 1.Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent, “Yangi nashr” nashriyot, 2010. – 364 b.
- 2.Hamdam U. Isyon va itoat. Roman. – Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2003. – 140 bet.
- 3.Насиров А.Н. Конфликт и художественная интерпретация. Образование, наука и инновационные идеи и мире. Международный научно-образовательный электронный журнал. – Фергана, 2023. 11-15-стр.
- 4.Nasirov A.N. Turk adabiyotinin gelisiminde devlet rakamlarinin veri (Mustafa Kamal Ataturknun faaliyateti ornegi uzerinden). “In memory of the 142th anniversary of his birth” 3rd international Ataturk symposium. 19-may, 2023. Azerbaijan Attaturk Center, Baku, 10-15-betlar.
- 5.Насиров А.Н. Свойства художественного языка в историческом романе. Евразийский союз ученых (ЕСУ). Международный научно-исследовательский журнал. №7 (76) / 2020. 3 часть. Impact Faktor 2020: 6.05. ISSN 2411-6467. 33-35-стр.